

O'ZBEK MUSIQIY MAHALLIY USLUBLAR HAQIDA MA'LUMOT.

Ziyavutdinova Zulfiya Useinovna

Andijon davlat universiteti.

z19830829z@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11659529>

Annotatsiya. Ushbu maqola xalq va og'zaki an'anadagi professional musiqa sifatida qadimdan rivojlanganligi, Buxoro-Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslublari, Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslublari haqida ma'lumotlar berigan. Xalq musiqasida lapar, terma, yama, qo'shiqlarttt turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasihatomez va boshqalar), og'zaki an'anadagi o'zbek professional Musiqasida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlar yoritilgan.

Kalit so'zlari: Buxoro-Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslublari, Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslublari.

INFORMATION ABOUT LOCAL UZBEK MUSICAL STYLES.

Abstract. This article provides information on the ancient development of folk and oral tradition as professional music, Bukhara-Samarkand music style, Khorezm music styles, Fergana-Tashkent music style, Surkhandarya-Kashkadarya music styles. In folk music, genres such as lapar, terma, yama, singlartt variations (ritual, domestic, labor, play, dance, lyrical, exhortation, etc.), and in Uzbek professional music in the oral tradition, genres such as epic, big song, singing, status, instrumental tracks are covered.

Keywords: Bukhara-Samarkand music style, Khorezm music styles, Fergana-Tashkent music style, Surkhandarya-Kashkadarya music styles.

ИНФОРМАЦИЯ О МЕСТНЫХ УЗБЕКСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ СТИЛЯХ.

Аннотация. В этой статье даны сведения о давнем развитии профессиональной музыки в народной и устной традиции, о Бухаро-Самаркандском музыкальном стиле, Хорезмском музыкальном стиле, ферганско-Ташкентском музыкальном стиле, сурхандарьинско-кашкадарьинском музыкальном стиле. В народной музыке выделяются такие жанры, как лапар, Терма, яма, песни (обрядовые, бытовые, трудовые, игровые, танцевальные, лирические, увещательные и др.), а в узбекской профессиональной музыке устной традиции-эпос, большая песня, пение, маком, инструментальные дорожки.

Ключевые слова: Бухаро-Самаркандский музыкальный стиль, хорезмский музыкальный стиль, фергано-Ташкентский музыкальный стиль, сурхандарьинский-кашкадарьинский музыкальные стили.

O'zbekistonda Musiqa, asosan, xalq va og'zaki an'anadagi professional Musiqa sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq musiqasida lapar, terma, yama, qo'shiqlarttt turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasihatomez va boshqalar), og'zaki an'anadagi o'zbek professional Musiqasida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlar mavjud. O'zbek Musiqa merosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin (qarang Buxoro-Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi). 20-asrda o'zbek va boshqa O'rta Osiyo xalqlari

Musiqqa merosini yozib olish va o'rganish bo'yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to'plamlari va ilmiy tadqiqotlar nashr etildi. Bastakor, xrfiz va sozandalar o'zbek Musiqqa merosi durdonalari (Shashmakom, Xorazm makomlari, Faryuna-Toshkent makom yo'llari va boshqalar) ni keng targ'ib qilibgina qolmay, yangi cholg'u kuy va ashulalar yaratdilar, dastlabki musiqali drama va komediya asarlarining muallif yoki hammuallifi bo'lishdi.

1930—1940-yillarda O'zbekistonda avvallari bo'lmagan yangi (opera, balet, simfonik Musiqqa, kamer Musiqqa, konsert kabi) Musiqqa janrlari yuzaga keldi. Ular, ayniqsa, 1950—1960-yillardan boshlab O'zbekiston kompozitorlari ijodida keng rivoj topdi, shuningdek, ommaviy Musiqqaning estrada musiqasi, yoshlar musiqasi kabi yo'nalishlari ham keng yoyilgan.

Xorazm musiqqa uslubi - Xorazm vohasida qaror topgan muayyan musiqiy an'analar majmui. Qadimdan madaniyat va san'at maskani bo'lgan ushbu hududda o'ziga xos xalq musiqqa ijodiyoti (bolalar va marosim qo'shiqlari, xalfa laparlari va boshqalar), og'zaki an'anadagi kasbiy musiqqa (doston, talqinchi va go'yandalar san'ati, maqom va boshqalar) namunalari keng o'rin tutadi. Xorazm musiqqa uslubi. doirasida xalq musiq asining eng qad. davrlariga mansub kuyohang namunalari o'z aksini topgan. Jumladan, bolalar ("Momom moshiydi", "Aravachi mani doyim", "Tuyalar, ho tuyalar" va boshqalar) va mavsum marosim qo'shiqlari ("Suyet xotin", "Ashsha daroz" va boshqalar)da musiqaning ilk bosqichlariga oid dastlabki tuzilma va ohang alomatlari, boshlang'ich parda asoslari saqlanib qolgan. Xalfalar san'atida "ichkari"ga xos ixcham diapazondagi past ovoz ko'lamida aytiladigan, faqat ayollargagina xos bo'lgan qo'shiq va ashulalar urin olgan.

Bunda qudalar tomonidan to'yga ruxsat berilgandan keyin aytiladigan "Boring boshlang, o'nglar bo'lg'ay tuyingiz", tuy boshlanishida "Muboraklar bo'lg'ay etgan tuyingiz" yoki kelin kelgandan keyin "Aylanaman kelinni qaddi bo'yinnan" va boshqa qo'shiqlar tuyning uziga xos rivojini belgilagan. Ayniqsa, qayroq bilan o'ynab aytiladigan lapar turi xalfa raqqosalariga juda xosdir.

Xorazmda xonandalik, sozandalik va raqqoslikni o'ziga kasb qilib olgan san'atkorlar guruxlari "sozanda qo'shlari" deyilgan. Ular ikki xil tarkibda, ya'ni 2ta surnaychi, doirachi, tanburchiashulachi, sozchi (garmonchi)ashulachi,raqqos, masxaraboz, so'z ustasi (shuningo'zimag'aldoqchiakrobat); dorbozchi, chodir xayol (qo'g'irchoqboz) va boshqalardan tashkil topgan. Sozanda qo'shlarining vazifasi to'yda baxshi dostonni tugatgandan keyin yoki to'yni yanada qizdirish maqsadida o'z san'atlarini (Lazgi kabi kuy va raqlarni ijro etib) namoyish qilishdan iborat. El orasida tanilgan sozanda qo'shlarining boshliqlaridan Husayn Kalot, Sobir Kalot, Shomurod surnaychi, Ushli Kal (mashhur "Ushlini uforisi" yallasining muallifi), Durdi karnaychi, Sobir Dorboz, Xo'ja Ko'r, Otoq Jonli, Kupal Hoji, Bayotvoy, Ollabergan Hoji, Xudoybergan Vovoq va boshqa mashhur.

Farg'ona-Toshkent musiqqa uslubi — Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida qaror topgan mahalliy musiqiy an'analar majmui. Mazkur uslubning o'ziga xos jihatlari o'zbek xalq musiqqa ijodiyoti (bolalar qo'shiqlari, ayollar folklori, terma, lapar, yalla, ashula va boshqalar) hamda mumtoz musiqqa (doston, ashula, katta ashula, maqom va boshqalar) namunalari kuzatiladi. O'zbek an'anaviy musiqasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan ushbu uslub doirasida xalq musiqasining eng qadimgi davrlarga mansub kuy-ohang va usul namunalari ham o'z aksini topgan. Jumladan, bolalar ("Laylak keldi", "Olatoy", "Oftob chiqdi" va boshqalar) va mavsumiy-marosim

qo‘shiq-lari ("Boychechak", "Binafsha" va boshqalar)da xalq musiqiy tafakkurining ilk bosqichlariga oid quyi (birlamchi) tuzilma va darakchi ohang alomatlari, parda asoslarida esa angemitonika xususiyatlari yaxshi saqlanib qolgan. Shuningdek, inson nutqi, so‘z aytish talaffuziga yaqin ohanglar dostonchi baxshilar ijodida ham muhim o‘rin tutadi. Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubigagina xos bo‘lgan katta ashula janrida esa nutqdosh ohanglarning mumtoz g‘azallar obrazlariga hamohang kuychanlik bilan payvasta bo‘lgan.

Odatda, so‘zdosh toifali ohanglar qo‘llangan janrlar doira usullari qo‘llanilmaydi. Bulardan farqli o‘laroq, kuychan xususiyatli janrlar (ashula, yalla, maqom va boshqalar)da jo‘rnavor cholg‘ular keng qo‘llanilishi kuzatiladi. Xususan, xotin-qizlar davralarida raqsga tushib yalla va lapar aytish, ashula kuylash (yallachilik) odat tusini olgan. Yakka holda yallachilar o‘z qo‘shiq-lariga dutor yoki doirada jo‘r bo‘lishadi. Ansambl shaklida ijrochilar esa odatda 2-3 ayoldan iborat bo‘lib, ular asosan doira jo‘rligida kuylashadi. Yallachilarning repertuari yalla, qo‘shiq, lapar va to‘ymarosim ("Yoryor", "Kelin salom", "O‘lan" va boshqa asar)laridan tashkil topadi. Yallachilikning yana bir ko‘rinishi Namangan an‘anasida "satang" deb atalib, bular ko‘proq turkumli (2 va undan ortiq, qismli) "katta yalla"larni doira jo‘rligida (odatda raqsga tushib) kuylaydilar.

Farg‘ona-Toshkent musiqa uslubida so‘lim tabiatli kuy-ohanglar ham shakllangan bo‘lib, ularning namunalarini mahalliy ashulalarda ko‘rish mumkin. Bular ikki xil bo‘ladi:

1. Xalq og‘zaki musiqa ijodida yuzaga kelgan ashulalar;
2. Bastakorlar tomonidan ijod etilgan ashulalar.

"Tanavor", "Ey nozanin", "Oydek to‘libdur", "Farzoni", "Ul parivash" singari xalq ashulalari nafaqat hofizlar, balki ziyolilar, hunarmandlar va boshqa kasb egalari, shuningdek, xotin-qizlar tomonidan ham ijro etib kelingan. Ayni paytda, "Nigorim", "Galdr", "Nisor", "Fig‘on", "Chaman yalla" singari ashulalarni, asosan, hofizlar mukammal ijro etib kelmoqda. Bunda tanbur va dutor jo‘rnavorligi ko‘p qo‘llaniladi. Bu turdagi uslubni shakllantirishda To‘xasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Jo‘raxon Sultonov, G‘anijon Toshmatov, Fahriddin Sodiqov kabi bastakorlar katta hissa qo‘shganlar.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubi — Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududlarida qaror topgan muayyan musiqiy an‘analar majmui.

Qadimdan madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘shiq va cholg‘u kuylari, mumtoz musiqa ijodiyoti namunalari keng o‘rin tutadi. Ayniqsa, professional musiqa yo‘nalishlarining xilmaxilligi va ular musiqa voqeligida keng yoyilganligi bilan ajralib turadi.

O‘ziga xos jihatlaridan yana biri — mazkur hududdagi o‘zbek va tojik xalq musiqa an‘analarining o‘zaro yaqinligi, jumladan xalq qo‘shiqchiligida ikki (o‘zbek-tojik) tillilik an‘anasining namoyon bo‘lishi (ya‘ni, ayrim xalq qo‘shiq-lari, qo‘shiq turkumlari ayni vaqtning o‘zida ham o‘zbek, ham tojik tillarida aytilishi)dir. Ikki tillilik an‘anasi shu sarhadda yashab faoliyat kursatgan ko‘pgina shoirlar (xususan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrat Zardo‘zi Samarqandiy va boshqalar) ijodida ham o‘z aksini topgan.

Qadimdan diniy ma‘rifat, ma‘naviyat o‘choqlari sifatida tanilgan Buxoro va Samarqand shaharlarida kitobxonlik, g‘azalxonlik, qissaxonlik, qalandarxonlik, maddohlik kabi o‘quv yo‘llari keng rivoj topgan. Turli yig‘in, to‘y va bayramlarda mavrigixonlar va sozanda dastalari tomonidan

ijro etilayotgan raqs qo'shiqlar turkumlari alohida o'rin tutadi. Ommaviy qo'shiq janrlaridan erkaklarning qarsak (beshqarsak) o'yin-qo'shiqlari mashhur.

Cholg'u ijrochiligi ham boy an'analarga ega. Bayram sayillari, musiqa tomoshalarida surnay, nog'ora, karnay ansamlari asosiy o'rin tutgan bo'lsa, turli yig'in-majlislarda g'ijjak, buxoro (afg'on) rubobi, dutor, nay, ayniqsa tanbur va boshqa sozlar ijrochiligi keng tarqalgan. Shuningdek, tanbur, nay va doira sozlaridan iborat bo'lgan cholg'u ansambli ham an'anaviy tuye olgan.

Professional musiqa yo'nalishlarida maqom va hofizlik san'atlari asosiy o'rinda turadi.

Xususan, 18-asr o'rtalarida Buxoro saroy madaniyatida Shashmaqom turkumi shakllangan bo'lib, keyinchalik Xorazm maqomlari hamda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari shakllanishiga ta'sir o'tkazgan. Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi doirasida qariyb barcha xalq cholg'ulari (dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqalar) namoyon bo'ladi.

Ular yakka yoki ansambl tarkibida qo'llaniladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to'y marosimlarida surnay, karnay, nog'ora va doiralardan iborat ansambl sadolari yangrasa, uyxona sharoitlarida dutor, tanbur, g'ijjak kabi nisbatan mayin sadoli cholg'ular qo'llaniladi. Binobarin, xalq madaniy hayotida har bir cholg'u o'z o'rnini, vazifasi va ijro etish uchun maxsus ("Qo'shtor", "Chertmak", "Dutor Bayoti" kabi) kuylar bo'lishi bilan birga mazkur sozdan ashula, lirik qo'shiklarga jo'rnavor sifatida ham foydalanilgan. Bu cholg'u (doira kabi) xotin-qizlar orasida ham keng ommalashgan.

Ammo tanbur, sato, nay, qo'shnay, g'ijjak, chang singari sozlar, asosan, kasbiy musiqachilar cholg'usi sifatida namoyon bo'ladi. Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida "Dilxiroj", "Andijon polkasi", "Farg'ona rezi", "Tanavor", kabi jozibali raqs kuylari ham mashhurdir.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi — o'zbek an'anaviy musiqasining mahalliy uslublaridan biri. Mazkur hududda yashayotgan xalqning etnik tarkibi, kelib chiqishi, tarixan qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ushbu uslubning o'ziga xosligini belgiladi. Jumladan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari o'zbek aholisining ko'pchilik qismi azaldan yarim ko'chmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanayotganligi sababli aynan shu jarayonlarga bog'liq xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin tutadi.

Masalan, O'zbekistonning boshqa hududlarida kam uchraydigan "sog'im qo'shiqlari" ("Xo'shxo'sh", "Tureytirey", "Chureychurey") sog'ilayotgan jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ularni iydirish maqsadlarida keng qo'llaniladi. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar esa yer haydash ("Ko'shchi qo'shig'i", "Shox moylash", "Qo'sh haydash"), hosilni o'rish ("Yozi"), xirmonda bug'doy yoki arpani yanchish ("Mayda"), bahor kelishi ("Navro'z" va boshqalar) va boshqa paytlarda kuylanadi. Ayniqsa, turli yig'in va to'ylarda erkaklar tomonidan ijro etilayotgan "qarsak" ("beshqarsak") davra o'yin qo'shiqlari mashhur.

An'anaviy musiqa cholg'ulari esa asosan cho'ponlar ijodiga xos sibizg'a, g'ajir nay, ayollar tomonidan keng qo'llaniladigan changqo'biz, baxshilarga jo'r o'lgan do'mbira (yaqin o'tmishda — qo'biz) bilan chegaralangan. Musiqa hayotida boshqa hududlardan farqli o'laroq baxshishoirilar va do'mbirakashlar asosiy o'rin tutadi. Do'mbirada ijro etilayotgan cho'ponlar mehnati bilan bog'liq cholg'u kuylar ("Cho'poncha", "Qo'ylarni sudrash", "Qo'ylarni yig'ish", "Cho'ponni chaqirish" kabi), doston kuy ("Baxshi kuy")lar keng tarqalgan. Baxshilar ijodidagi

"Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi qahramonlik dostonlari hamda turli mavzudagi termalarni ijrosida maxsus "ichki ovoz" uslubi qo'llaniladi.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilikning 2 yirik markazi — Shahrisabz dostonchilik maktabi va Sherobod dostonchilik maktabi shakllangan. So'nggi davrlarda boshqa mahalliy musiqa uslublariga xos musiqiy an'analar (mas, maqom ijrochiligi san'ati) ham yoyila boshlagan. Hozirda Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi ko'pgina folkloretnografik ansambllar ("Shalola", "Boysun" va boshqalar), estrada xonandalari (M.Namozov, S. Qoziyeva) ijodiga asos bo'lmoqda, baxshilar tanlovlari, 2002-yildan o'tkaziladigan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali orqali jahon sahnasiga chiqmoqda.

REFERENCES

1. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. T.: «FAN», 1(74).
2. B o'zlardan uchgan g'azal-ay . O'zbek xalq yig'ilari va yo'qlovlari. «Buxoro» nashriyoti, 2004.
3. Jo 'rayev M. N avro'z bayrami. T.: FAN, 2009.
4. Ismoilov Hayot. O'zbek to 'ylari. T.: « O 'zbekiston», 1992.
5. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. T.: «FAN», 1953.
6. Mirzayev T. O'zbek folklorida lapar.- o 'ta, 1998, 1-son, 42 45- b.